

COMPETENTLI TA'LIM YONDASHUVINING SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH SHART SHAROITLARI

Qurbonova Mushtariy Abdujabbor qizi,

O'qituvchi O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti,

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası

Email: mushtariy.qurbonova@mail.ru.

Jahon siyosati, iqtisodi va ta'lim sohalari, ishlab chiqarish, kadrlar tayyorlash tizimida mamlakatlararo integratsiyalashuv yuz berayotgan bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish va kompetentyondashuvli ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash, ko'nikmalar hosil qilish masalasi o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ushbu yondashuvning imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalana olish va qo'yilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yondashuvning kelib chiqish tarixi bilan tanishish, uning shakllanish bosqichlari va ta'lim tizimida yuzaga keltirgan o'zgarishlarini ilmiy-nazariy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda [1].

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim tizimi pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar N.A. Muslimov, Sh.K. Mardonov, M.Quronov, M.Vahobov, N.M.Egamberdieva, X.I.Ibragimov, Matchonov Safa, J.E.Usarov, K.D.Riskulova, A.Sh.Muxsieveva, U.N.Xujamkulov, O'.Toshmatov, Z.Ismoilova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Anisimov, J.Shaygozova, M.Sultanova, Ye.Medvedeva, I.Levchenko,

L.Komissarova, T.Dobrovolskaya, O.Korjenko, Ye.Zargaryanlar tomonidan bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishning tashkiliy shartsharoitlari tadqiq etilgan. Xorijlik olimlardan M.Meskon, T.Kellagan, T.Skott Myurrey, W.Jhon Morgan, Tony Bush, Lawrence A.Sherr, Deborah, C.Taylorlarning tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini samarali nazorat qilishning tashkiliy-metodologik asoslari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan.

Yuqorida nazarda tutilgan izlanishlarga qo'shimcha qilgan holda O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelgan yangi kompetentli yondashuvning rivojlanish tarixi yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, "kompetensiyaga asoslangan ta'lim" ta'lim yo'nalishi sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarida shakllangan. Uning dastlabki g'oyasi N. Chomskiy tomonidan 1965 yilda e'lon qilingan generativ grammatikadan olingan. Uning negizida "... til o'rganishda kompetentsiya yoki bilim o'rtasidagi tub farq, til va tilni qo'llash yoki uni amalda qo'llash" kabi ilg'or g'oyalari yangi bir yondashuvga asos bo'lgan. [2]

Psixologlarning har bir shaxs o'z individual o'rganish texnologiyasiga ega degan fikrlari ham kompetensiyaga asoslangan o'qitish usuling rivojlanishida asos nuqta bo'lib xizmat qilgan. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda ta'limning asosiy maqsadi talabani tarbiyalash emas unga qo'yilgan maqsadga qanday erishishni o'rgatish va bu bilan talaba o'zi uchun samarali deb hisoblagan mashg'ulot shaklini tanlay olish imkoniyatiga ega bo'lgan va bu samaradorlikni oshira brogan. Ko'rinib turganidek ushbu yondashuv rivojlanishining dastlabki davridayoq yuqori samaradorlik darasi bilan o'z tarafdorlarini topgan. Kompetentli yondashuv negizida yana bir qator tushunchalar ajralib chiqqan: "professionalizm", "kompetensiya" va "kompetentlik" kabilar shular jumlasidandir. Ko'plab tadqiqotchi olimlar kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvining shakllanish tarixini o'rganishga murojaat qilganlar. Bu borada N. Gishanov, I. Zimnyaya, V. Baidenkon, R. White va J.C. Raven kabi olimlarning

izlanishlarini sanab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Qilingan izlanishlarni umumlashtirib aytish mumkinki, kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi rivojlanish tarixini uch muhim bosqichni ajratish mumkin. [3]

Birinchi bosqich 1960-1970- yillarni o'z ichiga olib, terminologik bosqich deb atash mumkin. Bu bosqichda yangi yuzaga kelgan ta'lim yo'nalishining o'z tushuncha va atamaları ilmiy sohada yangi atamalar sifatida tanishtirilib borilgan. Va hali o'qitish jarayonida amalda qo'llanilmayotgan edi. 1970-yillar o'rtalaridan 1990-yillar boshlariga qadar bo'lgan davrda yondashuvni asoslashda psixologik aspektlar asosiy o'ringa chiqadi va bu davrni kompetensiyaga asoslangan yondashuvning psixologik aspect davri deb atashimiz mumkin. Ushbu davrda J. Raven, R. Burns, C. Makenshnan kabi olimlar ta'limning kompetensiya asoslangan yondashuvi doirasida ko'plab konseptlar ishlab chiqdilar. Ular sohalararo qo'llanishda chegaralangan edi.

Vaholangki, yondashuvning bir qator ta'limiy aspektlari ham huddi shu davrda ishlab chiqildi. Shuni alohida takidlash joizki, bu jarayon aynan chet til o'rganish sohasida qo'llanila boshlandi. Yondashuv tarixidagi uchinchi bosqich 1990-yillar o'rtalaridan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ushbu davr yondashuv konsepsiyalarining global tarzda qo'llanila boshlangani bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari shu davrda rus olimlarining ham kompetensial pedagogikaga qiziqishlari ortib boradi va natijada A. Markova, L. Alekseyeva, G. Sivkova va L. Mitinalar

muallifligida qator fundamental ilomiy ishlar yuzaga keladi. Uchinchi bosqichning muhim yutuqlaridan bir bu- yondashuvning rasmiy tan olinishi edi. Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim samaradorligiga yo'naltirilgan ko'rsatmalarda qator kompetensiyalar tizimini o'z ichiga olgan ta'lim texnologiyalari ta'limda qo'llash uchun maqsadli deb topiladi. Shuni takidlash lozimki, kompetensiyaga asoslangan ta'limda o'rganuvchilar nimani

o'rganishlari kerakligini tushuntirishdan ko'ra o'rganish natijalariga atta ahamiyat beriladi, egallangan bilim ko'nikma va malakalar yordamida nimaga erisha bo'ladi degan savolga javobberadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshtemirova S.A., Muhammadiyev K.G'. (2021). T'lim sifati boshqaruvi va bu yo'nalishdagi xalqaro modellarning o'ziga xos xususiyatlari. Academic Research in educational sciences, 2(3), 769-777.
2. Chomsky, N. Language and mind. – New York: Harcourt, Brace & World, 1968. – 342 p
3. Zimnyaya, I.A. Kompetentnostnyj podhod. Kakovo ego mesto v sisteme sovremennyh podhodov k problemam obrazovaniya? Vysshee obrazovanie segodnja. – No.11. – 2005.– p. 20–26